
Tumanimizda og'ir hudud qolmasligi kerak!

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan, qishki mavsumga tayyorgarlik ko'rish, fuqarolarning e'tirozlari va murojaatlariga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish maqsadida barcha darajadagi hokimlar va sektorlar rahbarlari tomonidan 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar har kuni hududlardagi aholi bilan uchrashuvlar o'tkazilishi belgilandi.

Bunda asosan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi past, chekka va olis hududlardagi muammolarning yechimini ta'minlash, aniqlangan muammolarni imkon qadar joyida hal etilishiga erishish, muddat va mablag' talab etadigan masalalar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun tuman hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov hamda tumandagi barcha tashkilot rahbarlari "Nurafshon" va "Istiqbol" MFY fuqarolari bilan uchrashdilar.





Uchrashuvda tuman hokimi bu yil paxta rejasini birinchi bo'lib bajarganligimiz uchun tumanimizga 5 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilganligi va ushbu mablag'ni qaysi sohalar kesimida taqsimlanganligi haqida to'xtalib o'tdi.



Shuningdek, uchrashuvda mahalla faollari tomonidan hududdagi yechimini kutayotgan muammolar bo'yicha tuman hokimiga murojaat qildilar. Murojaatlar yuzasidan tegishli tashkilot vakillari muammoning yechimi va aniq muddatini aytib o'tdilar.

Uchrashuvlar davom etmoqda

2019-11-16 23:01:28